

---

## Marg'olonda soliq idoralari tomonidan 14,5 million so'mlik pirotexnika vositalarining noqonuniy savdosi oldi olindi

Yangi yil yaqinlashgani sayin pirotexnika vositalari savdosidek noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanuvchilarni bozorlar, savdo rastalari, do'konlar, va boshqa aholi gavjum bo'lgan joylarda uchratish mumkin.

Mana shunday holatlarni aniqlash va bunday noqonuniy savdoga yo'l qo'ymaslik maqsadida Farg'ona viloyati Davlat soliq boshqarmasi tomonidan Ichki ishlar idoralari bilan hamkorlikda nazorat tadbirlari, axborot tushuntirish ishlari kuchaytirildi.

Afsuski, o'zlarining moddiy manfaatlarini boshqalarining sog'lig'i, hatto hayotidan ustun qo'yadigan "tadbirkorlar" yo'q emas.

Xususan, Marg'ilon shahrida o'tkazilgan tadbirlarda fuqaro K.A. pirotexnika vositalarining noqonuniy savdosi bilan shug'ullanayotganligi qayd etildi. Jamiyatga zarar keltirayotgan "tadbirkor"ning "Dragon" nomli 207 dona umumiy qiymati 14,5 million so'mlik pirotexnika vositalari savdosiga chek qo'yildi. Mazkur holat yuzasidan belgilangan tartibda dalolatnoma rasmiylashtirildi hamda "uddaburon"ning tovar moddiy boyliklari daliliy ashyo sifatida masala qonuniy hal bo'lgunga qadar vaqtincha saqlash uchun olindi.

Shuningdek, Qo'qon shahrida istiqomat qiluvchi Sh.S. faoliyati o'rganilganda, ushbu fuqaro xorijda ishlab chiqarilgan, respublikamizga noqonuniy yo'llar bilan olib kelingan 2 turdagi umumiy qiymati 0,5 million so'mga yaqin pirotexnika vositalarini kelgusida noqonuniy savdosini ta'minlash uchun o'z uyiga olib ketayotganligi ham aniqlandi.

Eslatib o'tamiz, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 185<sup>1</sup>-moddasiga muvofiq, pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish, xuddi, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish (O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o'tkazish huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, eng kam ish haqining besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Jinoyat kodeksining 250<sup>1</sup>-moddasida esa bunday qilmishlar sodir etganlar uchun uning kim tomonidan sodir etilgani va qanday oqibatlarga olib kelganligiga qarab turli jazo choralari, jumladan, sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanishi ko'zda tutilgan.

**Farg'ona viloyati Davlat soliq boshqarmasi axborot xizmati**

2018-12-27 15:06:52